

**TALABALAR UCHUN RAQAMLI TO`LOV VOSITALARINI  
O`RGANISH – MOLIYAVIY BARQARORLIK SARI QADAM**

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti  
Moliya sohasida boshqaruvi yo`nalishi 2- bosqich talabasi  
Narullayev Omonulloxon Nodirjon o`g`li  
E-mail: omonulloxon0408@gmail.com  
Tel: +998949874707*

**Annotation.** Ushbu maqolada raqamli to`lov vositalarining rivojlanish istiqbollari va ularning zamonaviy jamiyatga ta`siri ko`rib chiqiladi. Xavfsizlik, tranzaksiyalar tezligi, qulaylik va foydalanish soddaligi kabi asosiy jihatlar batafsil tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda naqd pulsiz to`lovlar va o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli to`lov vositalarini o`rganishga qaratilgan. Shuningdek, bu tizimlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangani va moliyaviy tranzaksiyalarni yanada qulay va mavjud holga keltirgani ta'kidlab o'tiladi. Mavjud to`lov tizimlariga umumiyl nazar tashlanib, ularning kamchiliklari tahlil qilinadi hamda kelgusida ularni yanada yaxshilash va innovatsion rivojlantirish yo`nalishlari ko`rsatib o'tiladi. Maqolada raqamli to`lov tizimlarining asosiy afzalliklari – foydalanish qulayligi, bank o'tkazmalarini amalga oshirish vaqtining qisqarishi, dunyoning istalgan nuqtasiga to`lovlar yuborish imkoniyati va operatsiyalar shaffofligi kabi jihatlar yoritib beriladi. Raqamli to`lov vositalaridan talaba va yoshlar ortasida yuzga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Talabalar raqamli to`lov vositalarini o`rganish orqali ayrim moliyaviy jarayonlarda faol bo`lishi hisob raqamdagagi pullarni hech qanday qiyinchiklarsiz boshqarish ko`nikmasini o`zlarida shakillantirishadi. Ushbu maqola raqamli to`lov tizimlarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini yaxshiroq tushunishga va ularning zamonaviy jamiyatdagi o`rnini baholashga yordam beradi.

**ИЗУЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ  
СТУДЕНТОВ – ШАГ К ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ**

**Аннотация.** В данной статье будут рассмотрены перспективы развития цифровых платежных средств и их влияние на современное общество. Подробно анализируются такие ключевые аспекты, как безопасность, скорость транзакций, удобство и простота использования. Основное внимание уделяется изучению цифровых платежных средств, позволяющих осуществлять безналичные платежи и переводы с использованием современных информационных технологий. Также подчеркивается, что эти системы стали неотъемлемой частью

нашей повседневной жизни и сделали финансовые транзакции более доступными и доступными. Будет дан обзор существующих платежных систем, проанализированы их недостатки и указаны направления дальнейшего их совершенствования и инновационного развития. В статье будут освещены основные преимущества цифровых платежных систем – такие аспекты, как простота использования, сокращение времени на осуществление банковских переводов, возможность отправки платежей в любую точку мира и прозрачность транзакций. Цифровые платежные инструменты анализируют проблемы, с которыми сталкиваются студенты и молодежь. Изучая цифровые платежные инструменты, студенты развиваются в себе навыки управления деньгами на счете без каких-либо трудностей, будучи активными в определенных финансовых процессах. Данная статья поможет лучше понять современное состояние и перспективы развития цифровых платежных систем и оценить их место в современном обществе.

## LEARNING DIGITAL MEANS OF PAYMENT FOR STUDENTS – A STEP TOWARDS FINANCIAL STABILITY

**Abstract.** This article examines the prospects for the development of digital payment instruments and their impact on modern society. Key aspects such as security, transaction speed, convenience and simplicity of use are analyzed in detail. The main focus is on the study of digital means of payment, which allows you to make non-cash payments and transfers using modern information technologies. It is also noted that these systems have become an integral part of our daily lives and make financial transactions more convenient and available. An overview of the existing payment systems will be analyzed, their shortcomings will be analyzed and directions for further improvement and innovative development will be outlined in the future. The article will highlight such aspects as the main advantages of digital payment systems – ease of use, reduced time for carrying out bank transfers, the possibility of sending payments to any point in the world, and transparency of transactions. From digital means of payment, problems coming to the face between students and young people are analyzed. The fact that students are active in certain financial processes through the study of digital means of payment makes the skills of managing money in the account without any difficulties in themselves. This article will help you better understand the current state and development prospects of digital payment systems and assess their place in modern society.

**Kalit so`zi:** raqamli to`lov vositalari, moliyaviy bilim, moliyaviy barqarorlik, tranzakstsiya, pul o`tkazmalar.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va moliyaviy texnologiyalarning kundalik hayotimizga chuqr kirib borishi bilan birga, to‘lov tizimlari ham tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy naqd pul aylanishining o‘rmini asta-sekin raqamli to‘lov vositalari egallamoqda. Ayniqsa, yoshlar, xususan, talabalar orasida elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish darajasi yil sayin ortib bormoqda. Talabalar hayotida moliyaviy savodxonlik va mustaqil moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davrda raqamli to‘lov vositalarini chuqr o‘rganish – ularning moliyaviy barqarorligini ta’minalash yo‘lida muhim qadamlardan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda turli ilovalar, onlayn bank xizmatlari, mobil to‘lov tizimlari va elektron hamyonlar orqali moliyaviy operatsiyalarni tez, xavfsiz va qulay tarzda amalga oshirish mumkin. Talabalar uchun bu vositalar nafaqat to‘lovlarni amalga oshirish, balki shaxsiy budgetni yuritish, xarajatlarni nazorat qilish va kelajak moliyaviy rejalshtirishni o‘rganish vositasi hamdir. Shu bois, zamonaviy raqamli moliyaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanishni o‘rganish – talabalarning moliyaviy mustaqilligini oshiradi va ularni iqtisodiy jihatdan ongli qarorlar qabul qilishga undaydi.

**Metodlar.** Mazkur maqlada raqamli to‘lov vositalarining turlari, ularning afzallikkabi va xavfsizlik masalalari, shuningdek, talabalar hayotida tutgan o‘rni chuqr tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli to‘lov texnologiyalarining moliyaviy barqarorlikka ta’siri, bu vositalarni o‘rgatishning zaruriyati va ta’lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Bu tadqiqot orqali raqamli to‘lov madaniyatini shakllantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va natijada barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘sish maqsad qilingan.

**Natijalar.** Mazkur tadqiqot doirasida talabalar orasida raqamli to‘lov vositalaridan foydalanish darajasi, ularning moliyaviy savodxonligi, shuningdek, ushbu texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyatlari chuqr tahlil qilindi. O’tkazilgan so‘rovnama va statistik ma’lumotlar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

**1. Raqamli to‘lov vositalaridan aholining foydalanish ko‘lamining kengayib borayotgani aniqlandi.** Respondentlar orasida 18–25 yosh oralig‘idagi talabalar orasida 87% dan ortig‘i kamida bir marotaba elektron to‘lov tizimlaridan foydalangan. Bu esa yoshlar orasida raqamli moliyaviy xizmatlarga ishonch va qiziqish yuqoriligini ko‘rsatadi.

**2. Talabalar orasida raqamli to‘lov vositalari bo‘yicha moliyaviy savodxonlik darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichdan past ekani kuzatildi.** Aksariyat talabalar raqamli hamyonlar, QR-kodli to‘lovlari, tokenlash, shifrlangan to‘lovlari va boshqa ilg‘or texnologiyalar haqida umumiyl tushunchaga ega bo‘lsalarda, xavfsizlik,

<sup>1</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-elektronnyh-platyozhnyh-sistem>

budjet nazorati va firibgarlikning oldini olish bo‘yicha yetarli bilimga ega emasliklari aniqlandi.

Moliyaviy savodxonlik darajasi	Foiz (%) talabalar soni	Tavsif
Yuqori	21,2 %	Raqamli moliyaviy ko‘nikmalarga ega talabalar
O‘rtacha	27,9 %	Asosiy bilimlarga ega lekin, chuqur tushuncha yo`q
Past	51,0 %	Moliyaviy raqamli savodxonligi past, xavfsizlikka e’tibor yetarli emas
Firibgalik qurban bo`lganlar	10,6 %	Talabalar orasida phishing/jinoiy to‘lov qurban bo`lganlar foizi
Phishing/xakkerlik urinishlari	19,2 %	Phishing kabi xatarli vaziyatlarga duch kelgan talabalar foizi

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelamiz:

1) **51 % talabalar** raqamli moliyaviy savodxonlik bo‘yicha past darajada, ya’ni **xavfsizlik, budjet nazorati va firibgarlikni aniqlash** bo‘yicha zarur bilimga ega emas;<sup>2</sup>

2) Atigi **21,2 % talaba** yuqori darajaga ega bo‘lib, raqamli moliyaviy vositalarni to‘liq anglab ishlatadi;<sup>3</sup>

3) **10,6 % talaba** digital firibgarlik – phishing kabi – qurban bo‘lgan, bu esa real xavf mavjudligini ko‘rsatadi;

4) **19,2 % talaba** phishing urinishlari bilan duch kelgan, lekin qurban bo‘lishga yo‘l qo‘ymasliklari mumkin.

3. **Raqamli to‘lov vositalaridan foydalangan talabalar orasida moliyaviy intizom va barqarorlikka moyillik yuqori.** Tahlil natijalariga ko‘ra, elektron budjet ilovalari orqali xarajatlarni nazorat qiluvchi talabalar o‘z moliyaviy ahvolini yaxshiroq boshqarishlari, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishlari va tejab-tergab yuritishni odat qilishgan. Elektron budjet talaba yoshlarni qo‘llaridagi mablag`larini nafaqat yig`ish, balki investitsiya qilish imkonini ham taqdim etmoqda.

4. **Raqamli to‘lov vositalarining qulayligi va tezkorligi kundalik moliyaviy qarorlarni osonlashtirayotgani aniqlandi.** Talabalar jamoat transporti, onlayn savdo, ovqatlanish va xizmatlar uchun to‘lovlarda raqamli vositalardan faol foydalanmoqda. Bu esa ularning vaqt va mablag‘ni tejashiga xizmat qilmoqda. Quyidagi statistik ma`lumot orqalik ham buni ko`rish mumkin:

<sup>2</sup> [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-08-09-07-03\\_ef3fc7e3c09376360e2b52fbe362ff11.pdf?utm](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-08-09-07-03_ef3fc7e3c09376360e2b52fbe362ff11.pdf?utm)

<sup>3</sup> [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz\\_digital-economy-study\\_uz.pdf?utm](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf?utm)

Maqsad / Foydalanish ko‘lami	Foiz (%)
Mobil/wallet (UPI, G-Pay va boshq.) haqida xabardor talabalar	90 %
<b>Onlayn xaridlar</b> uchun raqamli to‘lovlar	60 %
<b>Vaqt tejash</b> maqsadida foydalanish	26,6 %
<b>Osonlik</b> maqsadida foydalanish	56,6 %

◆ **90 % talabalar** mobil wallet yoki UPI kabi raqamli to‘lov vositalaridan xabardor va foydalanadi, bu ularning texnologiyaga ochiqligini ko‘rsatadi .

◆ **60 % respondentlar** onlayn xaridlar uchun digital to‘lovlardan foydalangan, ya’ni kommunal, ta’lim yoki ovqatlanish xizmatlari uchun bu usullar sezilarli darajada ishlatilmoqda .

◆ Eng ko‘p tilga olingan foydalanish sabablaridan biri — **qulaylik** (56,6 %), ikkinchisi esa — **vaqtini tejash** (26,6 %)

**5. Moliyaviy barqarorlikka erishishda raqamli to‘lov vositalarini o‘rganish muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.** Talabalik davridayoq to‘g‘ri moliyaviy odatlarni shakllantirish, raqamli moliyaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish ularning keljakdagi iqtisodiy mustaqillik va barqarorliklariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarni elektron to`lov vositalaridan to`g`ri foydalanishi iqtisodiy jarayonlarni va pul aylanmalarini aholi orasida jadal rivojlanishiga sabab bo`lib xizmat qiladi.

### XULOSA

Ushbu tadqiqotga xulosa qilish orqali shuni ko`zatishimiz mumkinki, talaba yoshlar orasida elektron to`lov tizimlaridan, qanday darajada foydalanayotgani va ulardagi moliyaviy bilimlarga ham baho berish imkoniga ega bo`lamiz. Ushbu tadqiqot orqali ko`rishimiz mumkunki, talaba yoshlar raqamli to`lov vositalaridan yetali darajada foydalanishmoqda, ammo foydalanish jarayonida turli firibgalik va muammlolarga duch kelishmoqda. Yuqorida jadvallar orqali ko`rishimiz mumkunki talaba yoshlar asosan raqamli to`lov vositalaridan asosan vaqt tejash, onlayn xaridlar va elektron to`lov vositalarining osonlikligi uchun foydalanish darjasiga yuqori ekanligini ko`rishimiz mumkin. Ayrim talaba yoshlar elektron budget vositalaridan ham o`z mablag`larini boshqarish va keraksiz xarajatlarni nazorat qilish maqsadida ham foydalanishmoqda bu jarayon yoshlarda moliyaviy bilim ko`nikmalarini shakillantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati**

1. <https://www.granthaalayahpublication.org/journals/granthaalayah/article/download/5191/5138/29251?utm>
2. [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-06/report\\_ird\\_project\\_2025\\_uzb.pdf?utm](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-06/report_ird_project_2025_uzb.pdf?utm)
3. [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz\\_digital-economy-study\\_uz.pdf?utm](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf?utm)
4. [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-08-09-07-03\\_ef3fc7e3c09376360e2b52fbe362ff11.pdf?utm](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-08-09-07-03_ef3fc7e3c09376360e2b52fbe362ff11.pdf?utm)
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-elektronnyh-platyozhnyh-sistem>